

**TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.07.2024.Ped.180.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**OMANOV RASHID SHERQOBILOVICH**

**BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK  
FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.01-Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Termiz – 2025**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**The contents of the abstract of doctor of philosophy (PhD)'s dissertation on  
pedagogical sciences**

**Omanov Rashid Sherqobilovich**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik fikrlashni shakllantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish .....

3

**Оманов Рашид Шерқобиллович**

Совершенствование педагогической системы формирования экологического мышления у учащихся начальных классов.....

27

**Omanov Rashid Sherkobilovich**

Improving the pedagogical system for forming ecological thinking in primary school pupils .....

53

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....

57

**TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.07.2024.Ped.180.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**OMANOV RASHID SHERQOBILOVICH**

**BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK  
FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.01-Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Termiz – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.Phd/Ped2556 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Termiz davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.terspi.uz) va "ZiyoNET" ta'lim portali (www.ziynet.uz) ga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Avazov Sherimmat**  
pedagogika fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Oripova Nodima Xalilovna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Djumayeva Hulkar Muhamadjanovna**  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Shahrisabz davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.07.2024.Ped.180.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 09-oktabr kuni soat 10:00 dagi 10/1-sonli majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: Termiz tumani, At-Termiziy ko'chasi, 1-A uy.) Tel.: (99876) 363-31-93; e-mail: terdpi@exat.uz

Dissertatsiya bilan Termiz davlat pedagogika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (5 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: Termiz tumani, At-Termiziy ko'chasi, 1-A uy.) Tel.: (99876) 363-31-93.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "29" "09" da tarqatildi.  
(2025-yil "29" "09" dagi "5" raqamli reestr bayonnomasi).



**Sh.A.Kuldasheva**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi,  
k.f.d., professor

**M.K.Ismailov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
(PhD), dotsent

**M.X.Shomirzayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi  
Ilmiy seminar raisi,  
P.f.d. (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda o'quvchilarga sifatli bilim berish, ularda ekologik fikrlashni shakllantirish, eko-muhitga salbiy ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda shaxsda ekomadaniyatni qaror toptirishga oid ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, YuNESKOning 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari loyihasi<sup>1</sup>da maktab o'quvchilarini umumta'lim fanlariga qiziqishini oshirish, kasbga yo'naltirib o'qitish bilan bir qatorda ularda ona tabiatga nisbatan hurmat hissini qaror toptirish, ekologik tarbiya, ekologik ong va ekologik fikrlashni shakllantirish jarayoniga innovatsion yondashuvlarni tadbiq etishga a'lohida e'tibor qaratilmoqda.

Dunyoda ekologik ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish hamda o'quvchilarda ekologik dunyoqarashni qaror toptirishga qaratilgan ko'plab dasturlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Germaniyaning Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha Zukkov fondi (Succov Stiftung), "Inson va biosfera" dasturi (Man and the Biosphere Programme), YuNESKOning Butunjahon biosfera rezervatlari tarmog'i kabi xalqaro dasturlarning asosiy maqsadi o'quvchilarda yashil tabiatga nisbatan hurmat, atrof-muhit ifloslanishining oldini olish, o'rmonlar va hayvonot dunyosini asrashga oid nazariy bilim va amaliy-ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. Shu sababli, ekologik tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda kichik maktab yoshidagi bolalarning ekologik bilim olishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. Ekologik ta'lim - o'quvchilarda ekologik fikrlash va atrof-muhitga to'g'ri munosabatni qaror toptirishga yordam berib, ijtimoiy-ekologik inqirozdan chiqishning eng optimal usuli hisoblanadi.

Respublikamizda "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirish", atrof muhitning ifloslanish darajasini qisqartirish, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik barqarorlikni ta'minlash<sup>2</sup> muhim vazifalar sifatida belgilangan. Bu vazifalarni amalga oshirishda ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalar atrof-muhit ifloslanishining oldini olishi, umumta'lim maktablari esa ta'lim jarayonida innovatsion yondashuv va modellardan foydalanishi, o'quvchilarda ekologik fikrlashni qaror toptirishning pedagogik tizimini takomillashtirishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son, 2023-yil 31-maydagi "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-81-

---

<sup>1</sup> Sustainable Development Goal 16 (SDG 16 or Global Goal 16) "Goal 16". United Nations Department of Economics and Social Affairs. Retrieved 11 August 2021. <https://sdgs.un.org/goals>; [https://en.wikipedia.org/wiki/Sustainable\\_Development\\_Goal\\_16](https://en.wikipedia.org/wiki/Sustainable_Development_Goal_16)

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni

son, 2025-yil 15-maydagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-184-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya kontsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarori hamda mazkur sohaga taalluqli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Sog‘lom turmush tarziga rioya qilish, atrof-muhitga mas‘uliyatli munosabatda bo‘lish, atrof-muhit muhofazasiga oid pedagogik qarashlar Abu Rayhon Beruniy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Kaykovus, Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib kabi Sharq mutafakkirlarining asarlarida o‘z aksini topgan. Ekologik tarbiya, ekologik ong va ekologik fikrlash rivojining ayrim pedagogik jihatlari respublikamiz olimlaridan E.Turdiqulov, Sh.Avazov, X.Norbo‘tayev, M.Nishonboyeva, A.Nig‘matov, N.Ravshanova, A.Rafiqov, T.Akimova, L.Alibekov, N.Isaqulova, P.Baratov, Yu.Mahmudov, A.To‘xtayev G.Abdullayeva, B.Ziyomuhamedov, A.Ismoilov, B.Kalonov, S.Mamashokirov, Sh.Maxmudova, Sh.Otaboyev, Yu.Shodimetovlar, ijtimoiy ekologik muammolarning huquqiy, tibbiy va ijtimoiy-falsafiy asoslari J.Xolmo‘minov, A.Kamalovlar tomonidan o‘rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) davlatlari olimlari Ye.Belskaya, V.Vernadskiy, G.Grigoryans, V.Gordienko, A.Zaxlebniy, I.Zverev, Yu.Odum, V.Korobkin, T.Kucher, A.Mironov, S.Nikolaeva, I.Suraveginalar tomonidan ekologiya va tabiatni muhofaza qilish masalalarining turli ilmiy-metodik jihatlari bo‘yicha tadqiqotlar, tegishli darsliklar va qo‘llanmalar yaratilgan.

Rivojlangan xorijiy davlatlar olimlaridan N.Reymers, T.Miller, M.Arnau, Hsing Yun, Thomas E, Nina Rokzen, R.Harding, J.C.Crumbaugh, C.Kluckhohn, R.Henrion, E.Shils, L.Kohlberg, M.Rokeash, S.Schwartz, W.Bilskylar ekologik ta‘lim va tarbiyaning umumpedagogik va xususiy metodik jihatlari bo‘yicha tadqiqot ishlarini amalga oshirgan.

Biroq, ekologik fikrlashni shakllantirish bosqichlari, mazkur jarayonga ta‘sir etuvchi omillar va uning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, pedagogik faoliyat modeli hamda texnologiyasini takomillashtirish muammosi maxsus pedagogik tadqiqot predmeti sifatida o‘rganilmagan. Shu maqsadda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik fikrlashni shakllantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish zarur.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat pedagogika institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan muvofiq №OT-F7-37 sonli “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tizimli ekologik fikrlash elementlarini

shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan (2021-2024-yy.).

**Tadqiqotning maqsadi** boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik fikrlashni shakllantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik fikrlashni shakllantirishning pedagogik modelini takomillashtirish;

o‘quvchilarda ekologik fikrlashni shakllantirishga ta’sir etuvchi omillar va uning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarda ekologik fikrlashni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik fikrlashni shakllantirishning modulli texnologiyasini ishlab chiqish va uning samaradorligini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik fikrlashni shakllantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Surxondaryo viloyati Termiz shaharidagi 1-, 2-, 15-umumta’lim maktabi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahridagi 44-umumta’lim maktabi, Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanidagi 12-umumta’lim maktablaridan jami 415 nafar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ishtirok etgan.

**Tadqiqotning predmetini** boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik fikrlashni qaror toptirishning pedagogik modeli, lokal-modulli texnologiyasi, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda muammoga doir adabiyotlarni qiyosiy o‘rganish va tahlil etish; kuzatish, sotsiometrik metodlar (suhbat, anketa, so‘rovnoma, intervyu, test); pedagogik-psixologik metodikalar, pedagogik eksperiment, natijalarni matematik va statistik tahlil etish usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik fikrlashni shakllantirishga qaratilgan pedagogik modelning eko-ta’lim mazmuni ekologik jarayonlarni modellashtirish, integrativ o‘quv materiallarini differensatsiyalash hamda o‘quv faoliyati natijalarini baholashda formativ va summativ usullarni qo‘llash asosida takomillashtirilgan;

ekologik fikrlashning qiziqish, bilish, ekologik xulqqa oid xususiyatlari individual-guruhli diagnostika natijalarini, shuningdek, obyektiv va subyektiv omillar ta’sirini hisobga olish orqali aniqlashtirilgan;

o‘quvchilarda ekologik fikrlashni shakllantirishning pedagogik tizimi ijtimoiy muhitni pedagogizatsiyalash, dialogik munosabatlar intensivligini ta’minlash, ijtimoiy vaziyatlarning asotsial ta’sirini profillaktika qilish, maxsus o‘quv-tadbirlar dasturining metodik imkoniyatlarini kengaytirish orqali takomillashtirilgan;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik fikrlash xususiyatlarini shakllantirish samaradorligi lokal-modulli texnologiya mazmunini takomillashtirish hamda “Biz tabiat himoyachilari” nomli maxsus darsdan tashqari o‘quv-tadbirlar dasturining korreksion-rivojlantiruvchi funksiyasini oshirish orqali aniqlashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

“Kichik maktab yoshidagi bolalarda ekologik fikrlashni shakllantirish” nomli o‘quv qo‘llanma nashr ettirilgan;

boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ekologik fikrlashning shakllanganlik darajasini aniqlashga doir diagnostik vositalar tizimi takomillashtirilgan;

darsdan tashqari mashg‘ulotlar uchun “Biz tabiat himoyachilari” nomli maxsus o‘quv-tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan;

“Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida modellashtirish vositasida tizimli ekologik fikrlash elementlarini shakllantirish” nomli elektron dastur ishlab chiqilgan;

o‘quvchilarda ekologik fikrlashni shakllantirish bo‘yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot maqsadi va vazifalariga mos tadqiqot usullarining tanlanganligi, tadqiqot tavsifi va tahlil natijalarining miqdor hamda sifat jihatidan ta‘minlanganligi, muammoni o‘rganishda falsafiy, metodologik yondashuvlarning asoslanganligi, natijalarning statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi, shuningdek tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘quvchilarda ekologik fikrlashni qaror toptirish bilan bog‘liqlikda “ekologik tarbiya”, “ekologik ta‘lim”, “ekologik bilim”, “ekologik dunyoqarash”, “ekologik fikrlash”, “ekologik mas‘uliyat”, “eko-madaniyat” kabi tushunchalar mazmunining ochib berilganligi, ekologik fikrlashni rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillarning tahlil etilganligi; boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik fikrlashni qaror toptirish jarayonining tarkibiy komponentlari hamda unikal pedagogik parametrlarning aniqlashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik fikrlashni shakllantirish modeli va lokal-modulli texnologiyasining takomillashtirilganligi, o‘quvchilarda ekologik fikrlashning shakllanganlik darajasini aniqlashga xizmat qiluvchi diagnostik vositalar tizimining boyitilganligi va ilmiy-metodik tavsiyalarning ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi. Dissertatsiya natijalaridan umumta‘lim maktablari uchun o‘quv dastur, darslik va metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish, ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni tashkil etish, boshlang‘ich ta‘limda “Tarbiya” va “Tabiiy fanlar”ni o‘qitishning metodik asoslarini takomillashtirish hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarida foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi.** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik fikrlashni shakllantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida:

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik fikrlashni shakllantirishga qaratilgan pedagogik modelning eko-ta‘lim mazmuni ekologik jarayonlarni modellashtirish, integrativ o‘quv materiallarini differensatsiyalash hamda o‘quv faoliyati natijalarini baholashda formativ va summativ usullarni qo‘llash asosida takomillashtirish, shuningdek, ekologik fikrlashning qiziqish, bilish, ekologik xulqqa oid xususiyatlari individual-guruhli diagnostika natijalarini, shuningdek, obyektiv va subyektiv omillar ta‘sirini hisobga olish orqali aniqlashtirishga doir taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son qarori bilan tasdiqlangan “Ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada takomillashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi”ni ishlab chiqish hamda “Kichik maktab yoshidagi bolalarda ekologik fikrlashni shakllantirish” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining 2022-yil 28-dekabrda 03-4784-son ma’lumotnomasi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-martdagi 55-son buyrug‘i, 55409-raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, ekologik fikrlash xususiyatlarini aniqlashga va eko-ta’lim mazmunini takomillashtirishga erishilgan;

o‘quvchilarda ekologik fikrlashni shakllantirishning pedagogik tizimi ijtimoiy muhitni pedagogizatsiyalash, dialogik munosabatlar intensivligini ta’minlash, ijtimoiy vaziyatlarning asotsial ta’sirini profillaktika qilish, maxsus o‘quv-tadbirlar dasturining metodik imkoniyatlarini kengaytirish orqali takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar “Kichik maktab yoshidagi bolalarda ekologik fikrlashni shakllantirish” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazining 2025-yil 29-maydagi 01/11-6-355-son ma’lumotnomasi; Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-martdagi 55-son buyrug‘i, 55409-raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, pedagogik shart-sharoitlarni qat’iy belgilash orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik fikrlashni shakllantirish samaradorligini oshirishga erishilgan;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik fikrlash xususiyatlarini shakllantirish samaradorligi lokal-modulli texnologiya mazmunini takomillashtirish hamda “Biz tabiat himoyachilari” nomli maxsus darsdan tashqari o‘quv-tadbirlar dasturining korreksion-rivojlantiruvchi funksiyasini oshirish orqali aniqlashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan xususan, “O‘zbekiston” teleradiokanalida efirga uzatilgan “O‘zbekiston yoshlari”, “Bolalar uchun”, “Bolalar va biz” nomli tele-dasturlarni tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston-24” ijodiy birlashmasi davlat muassasasining 2025-yil 3-iyundagi 05-09-193-son ma’lumotnomasi). Natijada, o‘quvchilarda ekologik dunyoqarash va eko-madaniyatni qaror toptirishning metodik tizimini takomillashtirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xorijiy va 12 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 21 ta ish, shu jumladan, 1 ta o‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 19 ta maqola va tezislar, jumladan, 12 tasi respublika, 7 tasi xorijiy jurnallarda nashr ettirilgan. Shuningdek, elektron o‘quv dasturlari uchun Davlat intellektual mulk agentligidan 1 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, 127 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obekti, predmeti aniqlangan, ishning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, nazariy hamda amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik fikrlashni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida o'quvchilarda ekologik fikrlashni shakllantirish muammosining nazariy-metodologik jihatlari, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik fikrlashni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari va ta'sir etuvchi omillar, mavjud holat tahlili yoritilgan.

An'anaga ko'ra, psixologiya va pedagogikada tafakkur jarayoni asosan muayyan bir muammoni hal qilishga qaratilgan aqliy harakatlar majmui sifatida belgilanadi. Tafakkur qilish moddiy va ma'naviy jarayonlar bilan uzviy bog'liqligi qoida sifatida belgilangan. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik fikrlashini shakllantirish muammosini o'rganish, zarur pedagogik-psixologik shart-sharoitlarini tadqiq etish va mazkur jarayonga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashtirish zarur.

Ekologik fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish tarixini tadrijiy o'rganish uning uzoq yillardan buyon tadqiq qilib kelinayotganligini ko'rsatdi. Shaxsda ekologik ong va dunyoqarashni barqaror shakllantirishning nazariy-tarixiy asoslari qadimgi yozma manbaalar hamda Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi Sharq mutafakkirlari va jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik qarashlarida o'z aksini topgan.

Ekologik ta'lim o'qitish va o'qish jarayonlarida mavjud ijtimoiy ekologik tajribaning avloddan-avlodga o'tkazilishidir. Ekologik ta'lim orqali shaxsda ekologik bilim, ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi. Ekologik ta'limning maqsadi shunchaki ekologik bilimlarni shakllantirish emas, balki ekologik madaniyatni rivojlantirishdan iborat. Bu esa yangi ekologik ta'lim paradigmasini shakllantirish imkonini beradi. Yangi ekologik ta'lim paradigmasida ekologik madaniyatning o'ziga xos tizimni shakllantiruvchi funksiyasini belgilash mumkin - bu jamiyatda ekologik faoliyatning ma'naviy va moddiy asoslarini tiklash jarayoni va natijasi hamda inson bilan tabiat o'rtasidagi o'zaro aloqani optimallashtirishdir.

Ta'limning yangi ijtimoiy-ekologik funksiyasi mazmunini jamiyatning ta'lim tizimlariga bo'lgan ijtimoiy buyurtmasini anglash orqali uni quyidagicha belgilash lozim: ekologik madaniyatning metodologik asoslarini qayta ishlab chiqish, ekologik tarbiya usullarini modernizatsiyalash va shaxsning ekologik ongini shakllantirish.

Ekologik pedagogika - bu ekologik tarbiyalangan, ekologik dunyoqarashga, ekologik ongga, ekologik fikrlash va madaniyatga ega bo'lgan shaxsni shakllantirish qonuniyatlarini o'rganuvchi pedagogikaning yangi fan sohasi sifatida vujudga kelmoqda. Ekologik pedagogika pedagogik fan sifatida ekologik ta'limning metodologik asoslarini aniqlab beradi.

O'quvchilarda ekologik fikrlashni qaror toptirish, jamiyatda va har bir fuqaroning hayot faoliyatida ekologik ta'lim-tarbiya hamda madaniyatni uzluksiz

yuksaltirib borish barqaror ekologik rivojlanishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Zero, global rivojlanish va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq ekologik muammolarning oldini olish hamda bartaraf etishda fuqarolar ishtirokini ta'minlash, ekologik huquqbuzarliklarga nisbatan murosasiz kurashish ustivor vazifalar sifatida belgilangan. Respublikamizda barqaror rivojlanish, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish maqsadida 2030-yilgacha "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi qabul qilingan. Strategiyada belgilangan maqsadlarga erishish uchun "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash dasturi doirasida ishlar amalga oshirilmoqda.

Jamiyatda, oilada, mahallada, ta'lim muassasalarida, davlat organlarida ekologik madaniyatni yuksaltirishning uzluksiz mexanizmini takomillashtirishga ehtiyoj mavjud. Ta'lim muassasalarida ekologik ta'lim-tarbiya jarayonlarini tizimli amalga oshirish, targ'ibot tadbirlarining manzilliligi, ularni tashkil etishda davlat organlari bilan fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish, targ'ibotning innovatsion usullaridan yetarlicha foydalanish lozim. Zero, 2030-yilgacha bo'lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasining asosiy maqsadi yosh avlodda ekologik bilim, ong va tafakkurni shakllantirish hamda rivojlantirish, ushbu yo'nalishda ta'lim-tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish, aholining barcha qatlamlarida ekologik madaniyatni, shu jumladan, "yashil" iste'mol madaniyatini yanada yuksaltirishdan iborat.

Ekopedagogika va ekologik ta'limning bugungi kundagi asosiy vazifasi inson bilan u o'zgartirayotgan tabiiy muhit o'rtasidagi optimal o'zaro ta'sirni belgilab berishdan iborat. Ekologik ta'lim-tarbiya - bu o'quvchi shaxsida ekologik bilim va ko'nikmalar, qadriyat yo'nalishlari, axloqiy-estetik munosabatlarni shakllantirish orqali ijtimoiy-tabiiy muhitni asrash uchun ekologik mas'uliyatni qaror toptirishga qaratilgan uzluksiz o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish jarayonidir.

Ekologik fikrlash – tabiat hodisalarini anglash jarayonida vujudga keladigan ekologik tushuncha, xulosalarni ifodalovchi va aks ettiruvchi ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, unda tabiat hodisalari, ularning mohiyati, mazmuni, sodir bo'lish shakllari, ahamiyati va xususiyatlari o'z aksini topadi. O'rganilgan ma'lumotlar tahlili asosida ekologik fikrlash tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: ekologik fikrlash ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida butun borliq, tabiatda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarning mazmun-mohiyati hamda ularning insoniyat hayotiga ta'sir etishiga oid bilimlar majmui bo'lib, o'quvchi shaxsining tabiat boyliklarini asrashga nisbatan qadriyatli munosabatida namoyon bo'ladi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan ekologik ta'lim-tarbiyaning quyidagi asosiy yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin: 1) ilmiy- tabiat hodisalari haqida nazariy bilim va tushunchalarni qaror toptirish; 2) tabiat resurslaridan foydalanish va muhofaza qilishga o'rgatish – amaliy ko'nikmalarni; 3) tarbiyaviy-axloqiy – ekologik xulq-atvor va estetik sifatlarni shakllantirish. Mazkur yo'nalishlar uyg'unligini ta'minlash ekologik fikrlash shakllanishiga xizmat qiladi.

O'quvchilarda ekologik fikrlashni qaror toptirish jarayoni tizimlilik hamda uzluksizlik xususiyatiga ega bo'lib, ekologik tarbiya va ekologik ta'lim uyg'unligida amalga oshiriladi. Bunda shaxs rivojlanishining yoshga doir psixologik-pedagogik jihatlarini inobatga olish lozim. Shundan kelib chiqib, ekologik fikrlashni qaror toptirishning uzluksiz tizimini quyidagicha izohlash mumkin (1-jadvalga qarang).

## Shaxsda ekologik fikrlashni qaror toptirishning uzluksiz tizimi

Bosqichlari	Davrlar	Mazmuni
<b>Shakllantirish bosqichi</b>	Maktabgacha yosh davri	Dastlabki ekologik tushunchalarning shakllanishi. Bunda bolalarda atrof-muhitni asrab-avaylashni, unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish ko'nikmalarini shakllantirish, atrof-muhitni muhofaza qilishni targ'ib qiluvchi, tabiatga bo'lgan ijobiy-hissiy munosabatlarni rivojlantiruvchi o'yin, mashg'ulot, video qo'llanma va boshqa ko'rgazmali materiallardan foydalaniladi.
	Kichik maktab yoshi davri	Aniq fan mavzulari doirasida o'quvchilarga ekologik madaniyatning oddiy va kundalik qoidalarini o'rgatish va atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslarni isrof qilmaslik bo'yicha asosiy nazariy bilimlarni shakllantirish.
<b>Rivojlantirish bosqichi</b>	O'smirlik davri (o'rta ta'lim)	Maktab o'quvchilarining ekologik ta'limini kuchaytirish. Bunda har bir maktabda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va asrash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida ekologik burchaklar va ekologik bog'lar tashkil etish nazarda tutilgan.
	Ilk o'spirinlik davri (o'rta maxsus va professional ta'lim)	O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida ekologik targ'ibotni amalga oshirishning zamonaviy shakllarini joriy etish. Buning uchun kasbiy ta'lim yo'nalishlariga mos ravishda ekologik ta'lim mavzularini tegishli fanlar tarkibiga kiritish, ekologiya xonasini tashkil etish va unga nisbatan talablarni belgilash, ko'ngilli o'quvchilari ishtirokida "Yashil qahramon" loyahasini amalga oshirish orqali atrof-muhitni muhofaza qilishning kundalik qoidalariga rioya etish va o'quvchilar o'rtasida ijtimoiy mas'uliyatni oshirishga erishish.
<b>Takomillash-tirish va qayta aloqani ta'minlash bosqichi</b>	O'spirinlik davri (oliy ta'lim)	Oliy o'quv yurtlarida talabalarning ekologik madaniyatini oshirish. Shu maqsadda talabalarning ixtiyoriy ekoko'ngilli harakatlarini tashkil etish, atrof-muhitni muhofaza qilish mavzulari bilan ekologik ta'lim materiallarini yangilash va to'ldirish, talabalarni ilmiy izlanishlarga keng jalb etish, oliy ta'lim muassasalarida ekoklublar faoliyatini yo'lga qo'yish lozim.
	Yetuklik davri (30 yoshgacha)	Davlat organlari, korxonalar va muassasalari xodimlarida ekologik fikrlashni rivojlantirish. Bunda aholi o'rtasida ekologik madaniyatni yuksaltirish, ekologik tashviqotning ommaviyligi va ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan innovatsion usullardan foydalanish, bepul o'quv kurslarini tashkil etish zarur.

Ekologik fikrlashni qaror toptirish bosqichlari zamonaviy bilimlarning mohiyatini belgilaydi. O'quvchilarda ekologik fikrlashni shakllantirish eng avvalo ularning atrof muhit, unda yashayotgan tirik organizmlar va tabiat hodisalari mohiyatini idrok etish qobiliyati bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, o'quvchilarda ekologik fikrlashni shakllantirish jarayoni avvalo quyidagi holatlar bilan shartlanadi:

ijtimoiy muhitni pedagogizatsiyalash;

tarbiyaviy va ta'limiy faoliyat shakllarida dialogik munosabatlar (o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchi, ota-ona va farzandlar, o'quvchi-jamoa o'rtasidagi munosabat)ning to'g'ri yo'lga qo'yilganligi;

ekologik fikrlashni qaror toptirish bilan bog‘liq shakllantiruvchi-rivojlantiruvchi vaziyatlarning takrorlanish davomiyligi;

real hayotiy vaziyatlarning asotsial ta’sirini pedagogik profillaktika qilish orqali korreksiyalash mexanizmi adekvatligini ta’minlash.


O‘quvchilarda ekologik fikrlashni shakllantirish jarayoniga qator omillar ta’sir etishini inobatga olib, ularni yaxlit holda uch guruhga ajratib olish maqsadga muvofiq: makro, mezo, mikro omillar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik fikrlashni shakllantirishga ta’sir etuvchi omillar mazmuni:

1) makro omillar – o‘quvchilarning ekologik fikrlashini shakllantirishda mamlakat, xalq, jamiyat va davlatning ta’sir ko‘rsatishi;

2) mezo omillar – ekologik fikrlashni shakllantirishda shaxs tug‘ilib yashayotgan mintaqqa, shahar, mahallaning hamda OAV (matbuot, TV, radio, internet va hokazo)ning ta’sir ko‘rsatishi;

3) mikro omillar – ekologik fikrlashni shakllantirishda oila, tengdoshlar va o‘qituvchilar jamoasi, qo‘ni-qo‘shnilar, turli xil jamoat tashkilotlarining ta’sir ko‘rsatishini inobatga olish lozim.

Ekologik fikrlashni shakllantirishga makro, mezo, mikro omillarning ta’sir darajasini o‘rganish, shuningdek, psixologik, pedagogik hamda ijtimoiy xulq bilan bog‘liq jihatlarini tahlil qilish asosida uning quyidagi xususiyatlari aniqlashtirildi (1-rasmga qarang).



**1-rasm. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik fikrlashni shakllantirishning o‘ziga xos xusuiyatlari**

Ijtimoiy-pedagogik diagnostika natijalari tahliliga ko‘ra ekologik fikrlashning shakllanishida mezo hamda mikro omillarning ta’sir darajasi ustivor ahamiyatga ega ekanligi ma’lum bo‘ldi. Mazkur omillar ayniqsa ekologik fikrlashga oid motivatsion (qiziqishga doir), bilishga doir hamda ekologik xulq-atvor kabi xususiyatlari namoyon bo‘lishida katta ta’sir kuchiga egaligi qayd etildi. Biroq, yuqorida keltirilgan omillar ichida ijtimoiy institutlar, oila, ta’lim muassasalari, turli xil jamoat tashkilotlarining shaxsda ekologik dunyoqarashni shakllantirishdagi faolligi hamda pedagogik madaniyatini yanada oshirish zarurati mavjud. Bu esa, ekologik ta’lim-tarbiya jarayonini shaxsga yo’naltirilgan ta’limning ustivor qoidalari asosida tashkil etishni, shuningdek, ijtimoiy muhitni pedagogizatsiyalash zaruriyatini belgilaydi.

Ekologik fikrlashning tarkibiy komponentlari va uning psixologik-pedagogik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'quvchilarda ekologik fikrlash shakllanganligini baholash quyidagi unikal pedagogik parametrlar asosida amalga oshirilishi belgilandi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

**Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik fikrlashning shakllanganligini baholash parametrlari**

<b>Baholash indikatorlari</b>	<b>Mazmuni</b>
<b>Motivatsion</b>	Tabiatni himoya qilishga doir kundalik qoidalarni bilish va ularni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishning mavjudligi bilan belgilanadi.
<b>Bilishga doir</b>	Ushbu indikator o'quvchini ichki hissiy kechinmalari hamda tabiatni asrash bilan bog'liq shaxsiy xulq-atvoriga oid bilimlar majmuini o'zida aks ettiradi.
<b>Ekologik xulq-atvor</b>	O'quvchi xulqida atrof-muhitni asrab-avaylash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishga doir amaliy ko'nikmalar hamda ekologik fikrlash elementlrini o'zlashtirishga nisbatan shaxsiy potentsialning yaqqol namoyon bo'lishi. Shuningdek, o'quvchi shaxsi yo'nalganligi, ekologik bilim va ko'nikmalarning amaliy faoliyatda namoyon bo'lishi bilan belgilanadi.
<b>Ekologik-qadriyatli munosabat</b>	Jamiyat hayotida sodir bo'layotgan voqea-hodisalar hamda shaxsning o'z-o'zini reflektiv tahlil qilishi orqali subyekt uchun ahamiyatga ega ijtimoiy qadriyatlar bilan bog'liqlikda atrof-borliqqa nisbatan shaxsiy munosabat va bahoning shakllanishi. Shuningdek, tabiat boyliklariga nisbatan qadriyatli munosabat va ekologik dunyoqarashning qaror topganligi bilan izohlanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik fikrlashning shakllanganligini belgilash yuqoridagi parametrlar asosida amalga oshirilishi hamda uchta "yuqori", "o'rta" va "quyi" darajalarda qayd etilishi qoida sifatida belgilab olindi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik fikrlashni shakllantirish tamoyillari sifatida quyidagilar belgilandi (2-rasmga qarang).



**2-rasm. O'quvchilarda ekologik fikrlashni shakllantirish tamoyillari**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik fikrlashni shakllantirish tamoyillariga quyidagilarni kiritish mumkin:

*ilmiylik tamoyili* – ekologik jarayonlar mazmunini ilmiy yondashgan holda izohlash, shuningdek, dars mashg'ulotlarida ko'rgazmali vositalardan foydalanish;

“o‘zi uchun” va “boshqalar uchun” tegishli bo‘lgan qadriyatlarni hurmat qilish tamoyili – shaxsiy eko-qadriyatlar tizimini barqarorlashtirish hamda ularning umum ijtimoiy qadriyatlar bilan uyg‘unligini ta‘minlash;

*atrof-muhitni pedagogizatsiyalash tamoyili* – ekologik ta‘lim-tarbiya jarayoni samaradorligini ta‘minlashda ijtimoiy institutlarning ta‘sir darajasini oshirish;

*integrativlik tamoyili* – ekologik ta‘lim va tarbiya jarayonini tashkil etishning maqsadi, vazifalari va mazmuni birligini ifodalab, ekologik fikrlashni shakllantirishda boshlang‘ich sinfda o‘qitiladigan fanlarning uyg‘unligini ta‘minlash;

*axloqiy-refleksivlik tamoyili* – eko-qadriyatlar “harakati”ni o‘zida ifoda etib, ularning o‘qituvchidan o‘quvchiga tomon harakatlanishini nazarda tutadi. Bunda refleksivlik “eko-qadriyatlarni uzatish va qabul qilish mexanizmi” vazifasini bajaradi;

*nazariya bilan amaliyot birligi tamoyili* – o‘quvchining nazariy ta‘limi bilan amaliy faoliyati yaxlitligini aks ettirib, bunda o‘qish faoliyati maqsadi va motivlarining uyg‘un holda tushunilishi hamda zaruriy ehtiyojlarning o‘quvchi tomonidan shaxsiy anglanishi sodir bo‘ladi;

*qadriyatli tanlov erkinligi* - shaxs tomonidan ekologiyaga oid qadriyatlarning mustaqil tanlanishi hamda ularning sifat va mazmun jihatdan baholanishi.

Dissertatsiyaning **“Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik fikrlashni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik fikrlashni shakllantirishning pedagogik modeli, lokal-modulli texnologiyasi hamda faoliyatni tashkil etishning shakl, metod va vositalari mazmuni yoritilgan.

O‘quvchilarda ekologik fikrlashni shakllantirish mazmuni qator pedagogik yondashuvlar uyg‘unligida kechadi. Xususan, *shaxsga yo‘naltirilgan* (boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilarning yoshi, individual qiziqish va imkoniyatlari); *faoliyatga asoslangan* (to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekologik yo‘naltirilgan faoliyat), *neobiosferik* (yangi ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, insonning aqliy faoliyatini hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan tizim - tabiat, inson va jamiyat taraqqiyotining asosi), *kompetensiyaviy* (o‘quv faoliyati yo‘nalishi va amaliyotga yo‘naltirilgan) *yondashuvlar* o‘quvchida ekologik fikrlashni shakllantirish doirasining kengayib borishi kabi holatlarda namoyon bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta‘lim fanlarini o‘qitishda o‘quvchilarning ekologik fikrlashini shakllantirish jarayoni quyidagi jihatlariga alohida e‘tibor qaratish lozim. Bunda: 1) *tabiat va ekotizimlar haqidagi dastlabki bilimlarni hosil qilish*: tirik organizmlarning har xil turlarini tushunish, ularning ekotizimdagi o‘zaro ta‘siri va roli, tabiiy resurslar va ulardan foydalanish haqidagi boshlang‘ich bilimlar; 2) *ekologik xabardorlik*: havo va suvning ifloslanishi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi, iqlim o‘zgarishi kabi mavjud ekologik muammolardan xabardor bo‘lish va ularning odamlar hayoti va tabiatiga ta‘sirini tushunish; 3) *ekologik qadriyatlar va axloqiy tamoyillar*: tabiatning ahamiyati va uni saqlash zarurligini anglash, atrof-muhitga mas‘uliyat va g‘amxo‘rlikni rivojlantirish, barqaror turmush tarziga intilish; 4) *ekologik xulq-atvorga oid ko‘nikmalar*: ekologik ongli qarorlar qabul qilish, eko-harakatlarda ishtirok etish qobiliyati, ekologik jihatdan samarali usul va texnologiyalardan foydalanishga doir amaliy-faoliyat tajribalarini o‘zlashtirish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik fikrlashini shakllantirishda maqol, topishmoq, afsona, rivoyat, ertak, doston kabi xalq og'zaki ijodi namunalari bilan birgalikda hadislardan ham foydalanildi. Shuni aytish mumkinki, xalq og'zaki ijodi namunalari orqali o'quvchilarda ekologik bilimlarni shakllantirish, avvalo, o'quv faoliyatini tashkil etishning eng optimal shakl, metod va vositalarini aniqlab olishni talab etadi. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning ekologik fikrlashini shakllantirishga yo'naltirilgan darslarning yaxlit tizimini ishlab chiqish zarur bo'ladi. Bunday tizimni ishlab chiqishda ekologik fikrlashni shakllantirish bilan bog'liq samarali bo'ladigan qator metodik shartlar ajratib ko'rsatildi:

bunda o'quvchi uchun qulay shaklda faktlar, hodisalar, bog'liqliklar, qonuniyatlar berilgan, bu esa ularga tahlil qilish, taqqoslash, tasniflash, ya'ni, tafakkurning mantiqiy operatsiyalarini rivojlantirish imkoniyatini berdi;

ko'rgazmali tafakkur bosqichma-bosqich ekologik fikrlash uchun asosni yaratadigan nazariy tafakkur bilan o'rin almashib borildi, chunki ekologik fikrlash organizmlarning atrof-muhit bilan o'zaro aloqadorliklarini tushunishga tayanib, ularni anglab yetish uchun kuzatishlardan boshlab ma'lum bir xulosalar, umumlashtirishlarni chiqarishgacha katta hajmdagi aqliy mehnat zarur;

o'quvchilarning faoliyati faol, izlanishli xususiyatga ega bo'lishi, ularning emotsional va intellektual rivojlanishi uchun qulay pedagogik muhitni yaratish;

ekologik fikrlashni shakllantirish jarayoni tabiiy va ijtimoiy bilimlarning integratsiyalashuvi sharoitida amalga oshirilib, kuzatish, tajriba, tadqiqotchilik ishi, modellashtirish, o'yin, prognozlash kabi usullar orqali amalga oshirildi;

o'qituvchilar tomonidan ekologik o'yinlar, sayohat, bayram, majmuaviy sayohat kabi o'quv jarayonini tashkil etishning noan'anaviy shakllari va metodlari, rivojlantiruvchi texnologiyalardan samarali foydalanildi. Tadqiqot ishi jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining individual ta'lim trayektoriyasini loyihalash orqali ularda ekologik fikrlashni shakllantirishning pedagogik modeli ishlab chiqildi (3-rasmga qarang).


Mazkur model quyidagi tarkibiy bloklarni o'zida aks ettiradi:

*maqsadli blok* - faoliyat maqsadi va vazifalarini, shuningdek, metodologik yondashuv va tamoyillarni;

*mazmunli blok* – boshlang'ich ta'lim milliy o'quv dasturi, ijtimoiy va tabiiy fanlar, shuningdek, darsdan tashqari mashg'ulotlar mazmunini; pedagogik shartlar sifatida esa "Biz tabiat himoyachilari" nomli maxsus o'quv-tadbirlar dasturi asosida faoliyatni tashkillashtirish; hamkorlikdagi faoliyat orqali mustaqillikni ta'minlash; tabiatga nisbatan qadriyatli yo'naltirilgan topshiriqlar, ijodiy topshiriqlar, keystadidan foydalanish; asosiy tushunchalar tahlili, fikriy yo'nalganlik; amaliy ko'nikma va tajribalarni hosil qilish; o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olish; o'z-o'zini qayta tarbiyalash;

*jarayonli blok* – faoliyat bosqichlari, darsdan tashqari mashg'ulotlar orqali o'quvchilarda ekologik fikrlashni shakllantirish texnologiyasi hamda metodik shart-sharoitlarini belgilaydi;

*natijaviy-baholash bloki* ekologik fikrlashni shakllantirish mezonlari, darajalari, bilim, ko'nikma, malakalar majmui, kutiladigan natijani o'zida aks ettiradi.



**3-rasm. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik fikrlashni shakllantirishning pedagogik modeli**

Jumladan, maqsadli blokda ekologik fikrlash haqida tasavvurni shakllantirish; insonlarning kundalik faoliyatida ekologik ongli xulq-atvorni rivojlantirish, tabiatni muhofaza qilish va ekologik muhitni barqaror saqlash yo'lida barqaror taraqqiyot tamoyillarini keng targ'ib qilish; universal ekologik tarbiyaviy harakatlar, atrof-muhit muhofazasiga asoslangan ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish; tabiatga nisbatan kognitiv qiziqish va g'amxo'rlik munosabatini shakllantirish; o'quvchilarni ongli ravishda tabiatni muhofaza qilish faoliyatiga jalb qilish; insoniyatning ekologik tafakkur tajribasini tahlil qilish va anglash, tabiatni muhofaza qilishga oid ongli immunitetni shakllantirish; ijtimoiy ahamiyatga ega muhitda o'quvchilarning shaxsiy o'sishi va rivojlanishini ta'minlash; atrof-muhitni yaxshilashga qaratilgan tadbirlar va hayot sifatini yaxshilash o'z ifodasini topgan.

Tadqiqot jarayonida qo'llanilgan vosita, shakl va metodlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik fikrlashini shakllantirishda birlamchi ahamiyat kasb etadi (3-jadvalga qarang).

### 3-jadval

#### Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik fikrlashni shakllantirishning shakl, metod va vositalari

Tashkiliy shakllar:	Metodlar:	Vositalar:
tabiat burchagidagi ishlar; sayohat; bayram; majmuaviy sayohat; ekologik kechalar; ekologiya haftaligi; ekologik o'yinlar; qariyalar, shoirlar va olimlar bilan uchrashuvlar; sahna ko'rinishlari; kattalarga yordam; bellashuvlar va h.k.	kuzatish; tushuntirish; tabiat go'zalliklaridan zavqlantirish; tajriba; nutqiy-mantiqiy masalalar echish; nojo'ya xatti-harakatdan ogohlantirish; taqqoslash (o'xshatish); suhbat; aqliy faollik; og'zaki test va h.k.	hadislar; rivoyat va hikoyatlar; she'rlar yod olish; pandu nasihatlar; maqol va matallar; topishmoqlar; ertaklar; loto; labirint; rebus; teleko'rsatuvlar; videokassetalar, disklar; diafilmlar; rasmlar va h.k.

Interfaol o'qitish metodlari sifatida aniqlangan asosiy yo'nalishlar: muammoli vaziyatlar orqali amaliy topshiriqlarni tashkil etish; tabiat hodisalari bilan tanishuv asosida nazariy tushuntirish va solishtirish; o'quvchilarni guruh va juftliklarda ishlashga yo'naltirish, ekologik jamoalar faoliyatini tashkil etish, "tasavvuriy mikrofon", "fikriy hujum" usullaridan foydalanish; bilish faolligini kuchaytirish, shaxsiy pozitsiyani ifoda etish hamda boshqa o'quvchilarning fikrlarini tinglash odatini shakllantirish; o'z-o'zini tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish va boshqa metodlar.

Jarayonli blok modelining mazmuni shundan iboratki, unda boshlang'ich ta'lim jarayonida eko-faoliyatni loyihalash quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: pedagogik tashxis qo'yish, maqsadni belgilash, mazmuni shakllantirish, yo'nalishni aniqlash, amaliyotga tatbiq etish va natijalarni tahlil qilib umumlashtirish.

Metodik komponent esa boshlang'ich sinf o'quvchilarini kuzatish, ekologik tafakkur elementlarini tushuntirish, ekologik ongni shakllantirishga yo'naltirilgan syujetli-rolli o'yinlar, keys-stadi, TRIZ texnologiyalari, "FSMU" usuli, reflektiv-perseptiv mashg'ulotlar, ekologik mantiqiy masalalardan foydalanishni nazarda tutadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shakllari sifatida sinfdan tashqari tadbirlar, ekologik yo'nalishdagi

ekskursiyalar, integrativ darslar, shuningdek “o‘qituvchi–o‘quvchi”, “o‘quvchi–o‘quvchi” hamkorlik tizimida dialogik va polilogik muloqot kabilar qo‘llaniladi.

Demak, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik fikrlashni shakllantirish samaradorligi umumta‘lim maktablarida o‘qitilayotgan fanlarning aksiopedagogik imkoniyatlarini oshirish hamda o‘quv faoliyatini to‘g‘ri tashkil etilishini ta‘minlash bilan izohlanadi. Mazkur holat esa quyidagi jihatlarga alohida e‘tibor qaratishni zarurat sifatida belgilaydi:

birinchidan, o‘quvchilarni ma‘naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash;

ikkinchidan, ularning insoniyat hayotidagi ekologik muammolarga nisbatan faol nuqtai nazarini shakllantirish;

uchinchidan, aksiologik yondashuv orqali o‘quvchilarning ekologik bilimni oshirib borish va qadriyatli munosabatni shakllantirish lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ekologik fikrlashini shakllantirishda “Tarbiya” va “Tabiiy fanlar”ni o‘qitish imkoniyatlaridan foydalanish asosiy vazifa sifatida belgilandi. Shundan kelib chiqqan holda kichik sinflarda o‘qitiladigan mazkur fanlar mazmuni, uning o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganildi.

“Tarbiya” fanining maqsadi – o‘quvchilarda ijtimoiy xulq-atvor ko‘nikmalarini shakllantirish orqali ularda milliy, umummadaniy va faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish. “Tarbiya” fanining asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda mas‘uliyat, majburiyat, teran dunyoqarash, sog‘lom e‘tiqodlilik, ekologik madaniyat, madaniyatlararo tenglik, ijtimoiy maqbul xulq-atvor kabi fazilatlarni shakllantirish. Shuningdek, o‘quvchilarning har tomonlama ijtimoiylashuviga ko‘maklashish, ularda atrof-muhitga oqilona munosabatda bo‘lish, tabiat boyliklarini asrab-avaylashga o‘rgatish, o‘quvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga xizmat qilish ham “Tarbiya” fanining vazifalar sirasiga kiritilgan.

Boshlang‘ich ta‘limda “Tabiiy fanlar”ning maqsadi o‘quvchilarda atrof-muhitga nisbatan qiziqish va kuzatuvchanlikni shakllantirish, shuningdek, asosiy tushunchalar mazmunini tushuntirishdan iborat. Mazkur fan o‘quvchilarga tabiiy dunyoni o‘rganish uchun zarur bo‘lgan asosiy bilim va ko‘nikmalarni beradi.

Boshlang‘ich ta‘limda tabiiy fanlarning maqsadi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

*tabiiy dunyoga qiziqishni uyg‘otish* - o‘quvchilarni atrof-muhitdagi hodisalarga qiziqishlarini oshirish, ularni kuzatishga va savollar berishga undash;

*asosiy tushunchalarni tushunish* - o‘simliklar, hayvonlar, tabiatdagi jarayonlar kabi asosiy tushunchalarni tushunishni ta‘minlash;

*tadqiq qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish* - atrof-muhitni kuzatish, kichik eksperimentlar o‘tkazish va natijalarni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish;

*ilmiy fikrlashga yo‘naltirish* – hodisalar mohiyatini tushuntirish, sabab-natija munosabatlarini tushunish va xulosalar chiqarishga o‘rgatish;

*atrof-muhitni muhofaza qilishga ongli yondashuvni shakllantirish* - tabiiy resurslarni tejash, atrof-muhitni ifloslanishdan asrash zarurligini tushuntirish;

*amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish funksiyasi* - tabiatda yashash, o‘simlik va hayvonlarni parvarishlash kabi amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish.

O‘quvchilarda ekologik fikrlashni shakllantirishda dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlar quyidagi qator talablarga javob berishi lozim. Ya‘ni: mashg‘ulotlarni

tizimli va izchil hamda maqsadli o'tkazish; mashg'ulotlarni o'zaro hamkorlik asosida tashkil etish; maktab o'quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olish; dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'quvchilar hoxish-istaklari asosida qiziqarli tarzda olib borish; ta'limiy va tarbiyaviy jarayon to'la qamrab olinishi; mashg'ulotlarni hayotiy voqealar bilan bog'lash hamda mashg'ulotlarda suhbat, hikoya, savol-javob, munozara kabi usullardan foydalanish.

Shundan kelib chiqib, tadqiqot doirasida o'quvchilarda ekologik fikrlashni shakllantirishning lokal-modulli texnologiyasi ishlab chiqildi. Ushbu modulli texnologiya quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi belgilandi (4-jadvalga qarang).

#### 4-jadval

### Darsdan tashqari mashg'ulotlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik fikrlashni shakllantirishning modulli texnologiyasi

Bosqichlari	Mazmuni	Metod va usullari
<i>Tayyorlov</i>	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik fikrlashni shakllantirish bilan aloqadorlikda tabiat hodisalari, tabiiy boyliklarni o'rganishga nisbatan shaxsiy ehtiyoj va qiziqishni shakllantirish. O'quvchilarda ekologik fikrlashning shakllanganligini tashxis etish.	Tashxis usullari (so'rovnoma-anketa, savol-javob, muammoli tavsifdagi suhbat), debat, o'z-o'zini tahlil etish, bahs-munozara, o'z-o'zini baholash.
